

**ULUSLARARASI
İSTİKLÂL MARŞI'NIN
KABULÜNÜN 100. YILI
ve TÜRK DÜNYASI
EDEBİYATLARINDA
HÜRRİYET FİKRİ
SEMPOZYUMU**

BİLDİRİLER KİTABI

Editörler:

Prof. Dr. Sedat ADIGÜZEL

Prof Dr. Hüseyin BAYDEMİR

Doç. Dr. Mayramgöl DIYKANBAY

Dr. Öğr. Üyesi Nursan ILDIRI



HURRIYAT-HAMZA İJODINING BOSH MASALASI

One of the Fundamental Motifs in Hamza's Works: Freedom

Azimjon DAVRONOV*

Özet

Ushbu maqola, XX. asrning 30-yillarigacha yashab ijod etgan, 1926-yilda birinchi bo'lib "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy she'rlarida hurriyat masalalarining ifoda etilishiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbek Adabiyoti, O'zbekiston, Hamza, Hurriyat

Abstract

This article is devoted to the expression of freedom issues in the poems of the verse writer Hamza Hakimzade Niyazi, who lived and worked until the 30s of the XX century, and was the first to be awarded the title of "Folk Writer of Uzbekistan" in 1926.

Keywords: Uzbek literature, Uzbekistan, Hamza, freedom

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'rni katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hamza o'zining ijodiy faoliyati davomida o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy an'alarini davom ettirdi. Jumladan,

* Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'zbek tili kafedrası o'qituvchisi (O'zbekiston). azimjondavronov2@gmail.com

Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqatlarning g`azallariga, nazira, tazmin va muxammaslar bog`lab, ajdodlarga munosib shoir bo`lganligini isbot etdi.

Hamza o`zining atigi 40 yil umri davomida badiiy ijodning barcha janrlarida ijod qildi. Hamza-shoir, yozuvchi, dramaturg, kompozitor, rejissor, publitsist, noshir, teatrshunos, yirik jamoat arbobi va ma`rifatparvar-pedagog edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida xususan erk, ozodlik va Hurriyat mavzulari bilan yog`rilgan asarlari salmoqli darajada. Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida O`zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor shunday yozadi:

“Hamza Hakimzoda Niyoziy ko‘zi ochilibdiki, qulog‘i mehnatkash xalq ko‘ksida bo‘lgan, xalqning dardiga malham qidirib har yonga bosh urgan kimsa, eski o‘zbek ziyolilarining halol qismiga mansub kishi edi. Hamza Hakimzoda asarlarining xalqqa bu qadar yaqin va suyumli bo‘lishiga asosiy sabab uning zamon bilan hamnafas va xalq dilining tarjimoni bo‘lganligidir” (Abdulla Qahhor.)³

Hamza, Abdulla Qahhor aytganidek, xalqning, millatning dardi bilan yondi. Uni savodli qilish yo‘lida, uni farovon turmush sari olg‘a qadam tashlashini istab, doimiy ravishda jonini fido qildi. Ziddiyatli va ikkiyuzlamachi bir tarixiy sharoitda tinimsiz jangovar she‘rlarni yozishdan charchamadi, qo‘rqmadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Hamzaning “Hoyishchilar!”, “Ishchilar, uyg‘on”, “ Yasha, Sho‘ro”, “Biz

³<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlaganadib.html>

ishchimiz” singari she’rlari o‘zbek she’riyatida inqilobiy o‘zgarish yasaganini aytib, bunday yozgan edi: “Bu rus inqilobiy poeziyasiga, Mayakovskiy poeziyasiga o‘xshaydi. Uning har bir so‘zi-bir shior, har bir she’ri davr hayqirig‘i edi. Ishchilar sinfi haqida birinchi bo‘lib poeziya yaratgan shoir Hamzadir.” (“Hamza zamondoshlari xotirasida” 1979, 82-bet)
4

“**Hoy ishchilar**” she’ri 1917-yilda Oktyabr inqilobi arafalarida yozilgan, deb taxmin etiladi. Ushbu she’r birinchi marta 1919 -yilda Hamzaning “Atirgul” to‘plamida bosilgan. So‘ng shoir vafotidan keyin nashr etilgan barcha she’rlar to‘plamlariga kiritilgan. To‘la asarlar to‘plamida “Atirgul” matni asosida nashr qilingan. She’r TAT 2-jildining 147-betida berilgan.

“**Hoy, ishchilar!**” she`rining tuzilishi quyidagicha bo`lib, 8 ta beshlik bir xil ohangda naqorat singari takrorlanadi. Undan keyingi to`rtlikda esa shoirning she`rxonga yoki ommaga aytmoqchi bo`lgan fikri ifoda etiladi.

Hoy, ishchilar!

(Ashula)

Hoy, ishchilar,

Ezilgan mehnatchilar!

Bitsin zolim boylar!

Erkingni qo`ldan berma,

Yasha, xizmatchilar!

Haqingni ol, ishchilar,

Yashov davri sening,

⁴ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 501-bet.

Basdur shuncha xo`rlik,
Zorliklar ko`rganing!

“Ishchilar, uyg`on!” she`ri 1917- yilda Oktyabr inqilobining dastlabki oylarida yozilgan. Bu she`r Hamzaning yaqin do`sti Muhiddin Qoriyoqubovdan yozib olingan. 1939- yili birinchi marta “Tanlangan asarlarida” nashr qilingan. Shoir vafotidan keyin nashr etilgan barcha she`rlar to`plamlariga kiritilgan. “To`la asarlar to`plami”da “Atirgul” matni asosida nashr qilingan. She`r TAT 2-jildining 152-betida berilgan.⁵

“Ishchilar, uyg`on” she`ri esa, 4 ta to`rtlik, ya`ni 16 qatordan iborat bo`lib, har bir to`rtlik ostida quyidagi ikkilik takrorlanadi. Bu ikkilik ikkinchi va to`rtinchi to`rtlik ostida ishlashga so`zining o`rnida o`qishga so`zi bilan almashtirib ifoda etiladi.

Ishchilar, uyg`on!

Necha asrlar uxlading yotib,
Kumushdek taning balchiqqa botib.
Bir parcha kuygan qora non uchun
Yoshlik chog`ingdan o`z Kuching sotib.
Ishchilar uyg`on, uyg`on, uyg`on!
Senga ishlashga yetishdi zamon.

“ Yasha, Sho`ro! “ she`ri Sotti Husayn ma`lumotiga ko`ra, 1918- yilda yozilgan, 1919-yilda “Atirgul” to`plamida nashr etilgan. Boshqa ma`lumotlarga qaraganda, Muhiddin Qoriyoqubovdan yozib olinib, birinchi marta 1939- yilda “Tanlangan asarlari”da chop etilgan. Keyinchalik shoirning “Tanlangan asarlar” (1954, 1958), “Asarlar” (1960,1969),

⁵ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 501-bet.

“Saylanma asarlar” (1979) to‘plamlarida va “Mukammal asarlar to‘plami” ning 3-jildida qayta nashr etilgan.

Yasha, Sho`ro!

(Ashula)

Buzma ko`ngling, boq, bu Sho`ro

Berdi mangu intiboh,

Tomchi har qoninga olding

Ilmu urfon, erku joh.

Yasha, Sho`ro, yasha, Sho`ro!

Sen yashaydigan zamon.

Ishchi o`g`li, shuxratingdan

Balqisin ro`yi jahon.

She`r Hamza rahbarligidagi O`lka sayyor dramtruppasi tomonidan 1919-1920- yillarda ko`p marta ijro etilgan.

Hamzaning zamondoshlaridan biri Sh. Sadrulin shoirning o`sha davr faoliyati haqida yozadi: “ Hamza Hakimzoda tomonidan tuzilgan orkestr va dramatik truppa ichki dushmanlarga qarshi kurashda katta rol o`ynadi...

Biz o`sha davrda Hamzaning “Hoy, ishchilar”, “Yasha, Sho`ro”, “Ishchilar, Uyg`on!”, “Hoy, hoy, otamiz” kabi qo`shiqlarini ko`p aytar edik...” (“Oktyabrskaya sosalisticheskaya revolyusiya i grajdanskaya voyna v Turkeстане”, Tashkent, 1957, 108-bet).

Ayrim ma`lumotlarga ko`ra, ushbu she`r dastlab, “Yasha, Turon!” shaklida bo`lgan. Lekin bu taxmini tasdiqlovchi dalillar topilmagan.

She'r O'zbekistonda barpo etilgan sovet hokimiyatining o'ziga xos madhiyasi sifatida aytilgan. "Tanlangan asarlar" (1939) matni asosida nashr qilingan. She'r TAT 2-jildining 160-betida berilgan.⁶

"Biz ishchimiz" she'ri 1917- yil Oktyabr inqilobining birinchi kunlarida yozilgan. She'r birinchi marta 1919- yilda Hamzaning "Atirgul" to'plamida bosilgan. So'ng shoir vafotidan keyin nashr etilgan barcha she'rlar to'plamlariga kiritilgan. "To'la asarlar to'plami"da "Atirgul" matni asosida nashr qilingan. She'r TAT 2-jildining 150-betida berilgan.⁷

Biz ishchimiz.

(Ashula)

Biz ishchimiz, mehnatchimiz,

Biz ham inson o'g'limiz.

O'ylashaylik, bizlar nadeb

Zolim bo'ylar qulimiz?

Og'ir yukda yag'ir bo'ldi

Oppoq nozik yelkalar

Rahmat, demak so'z o'rniga

Jerkib, so'kib, silkalar.

Shoirning navbatdagi she'ri **"Uyg'on"**, "Yasha Sho'ro" "Biz ishchimiz" she'rining tadrijiy davomi hisoblanadi. Shoir bu she'rlari bilan xalqni ma'naviy ruhlantiradi, kuch,shijoat bag'ishlaydi.

"Uyg'on" she'ri 1918 -yil boshlarida yozilgan. 1919- yil "Atirgul" to'plamida nashr etilgan. Bu she'rga shoir o'zi kuy bastalagan. She'r o'zbek xalqining sevimli revolyusion qo'shig'iga aylangan. "To'la asarlar

⁶ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 503-504-betlar.

⁷ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 501-bet.

to‘plami”da “Atirgul” matni asosida nashr qilingan. She’r TAT 2-jildining 157-betida berilgan.⁸

Hamza she`rlarining har biri alohida o`ziga xos ko`rinish va tuzilishga ega. Ko`rib turganingizdek, har bir she`rda xalqni olg`a undovchi misralar asosiy mazmundan oldin yoki keyin kelib, aytilmoqchi bo`lgan fikrni takror-takror ta`kidlaydi va o`z o`rnida she`rga o`ziga xos ohangdorlik baxsh etadi.

Uyg`on!

(Ashula)

Uyg`on uyg`onmoq davrida

Turkiston,

Yasha, Turkiston, omon, omon, omon!

Yashasun maktab, shogirdlar o`qisun,

Eski turmushlar, vahshatlar yo`qolsun!

Eru qizlardan yetishib xodimlar,

Elga haqiqiy maorif tarqatsun!

“ **Ishchi bobo** “ she’ri 1918- yil boshlarida yozilgan. 1919- yil “Atirgul” to‘plamida nashr etilgan. Bu she’rga shoir o‘zi kuy bastalagan. Bu haqda mazkur to‘plamga yozilgan so‘z boshida quyidagilar aytiladi: “Ohangi shoirning o‘zi tarafidan yasalgandir. O‘quvchi og‘alarimizga bilimsiz qolmasin uchun har birini notaga ko‘chirdik.” She’r shoirning “Tanlangan asarlar” (1949, 1951, 1958), “ Asarlar” (1960, 1969), “Saylanma asarlar” (1979) va “Mukammal asarlar to‘plami”ning 3-jildida qayta nashr qilingan.

⁸ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 503-bet.

“To‘la asarlar to‘plami”da “Atirgul” matni asosida nashr qilingan. She’r TAT 2-jildining 159-betida berilgan.⁹

“**Hoy, hoy, otamiz!**” she’ri 1918- yil boshlarida yozilgan va 1919 - yilda “Atirgul” to‘plamida bosilgan. Keyinchalik nashr qilingan barcha asarlar nashrlariga kiritilgan.

She’rga shoirning o‘zi kuy bastalagan. O‘zbek xalqining revolyusion qo‘shiqlaridan biriga aylangan ushbu she’r, o‘z vaqtida qardosh xalqlar tomonidan ham sevib kuylangan.

Tojik sovet shoiri M. Tursunzoda bu haqda,shunday yozadi: “Rus, tojik revolyusion qo‘shiqlari qatorida o‘zbek qo‘shiqlarini, shu jumladan, Hamza Hakimzoda qalami bilan ijod etilgan “Ishchilar, uyg‘on!”, “Hoy, hoy, otamiz” kabi jangovar qo‘shiqlarni jonu dilimiz bilan kuylar edik” (“ Hamza zamondoshlari xotirasida” 30-bet). She’r “Tanlangan asarlar” matni asosida e’lon qilingan. She’r TAT 2-jildining 162-betida berilgan.¹⁰

“**Oy singlim, oy og‘am**” nomli she’ri 1918- yilda yigit va qizning dialogi shaklida yozilgan. Ushbu she’rning dastxati Hamza arxivida 32-inventar raqami bilan saqlanadi. She’r 20*27 formatli katak daftar varag‘iga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan.nBirinchi marta “Mukammal asarlar to‘plamining 3-jildida e’lon qilingan. Qo‘lyozma asosida chop etilgan. She’r TAT 2-jildining 164-betida berilgan.¹¹

“ **Berma erkingni qo‘ldan** “ she’ri Hamza arxivida 52-inventar raqam bilan saqlanadi. “Oy singlim, oy og‘am “ she’rining davomiga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan. She’r sarlavhasi va yozilgan sanasi

⁹ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 501-bet.

¹⁰ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 504-bet.

¹¹ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 505-bet.

qayd etilmagan. Hamzashunos olimlar bu she'ning 1919- yilda yozilib, 1919-1920-yillarda Hamza rahbarligidagi O'lka sayyor dramtruppasi tomonidan ko'p marta ijro etganligini ta'kidlab o'tadilar.

She'r ilk daf'a "Tanlangan asarlar" (1949) da nashr etilgan. Keyinchalik shoir asarlarining barcha nashrlariga kiritilgan. Qo'lyozma asosida e'lon qilingan. She'r TAT 2-jildining 167-betida berilgan.¹²

Berma erkingni qo'ldan

(Ashula)

Papoq kiygan qahramon,
Gavdali qoplon,
Temir panjang bilan to'k,
Dushmaningdan qon.
Bobolarda bir so'z bor,
Eshit og'ajon:
"Bosgan izidan qaytmas,
O'lsa ham arslon",
Dupir-dupir oyoq bos,
Yerni titratib,
Dushman sari yo'lga bos,
Otlar o'ynatib !

"Yashangiz, ishchi, dehqonlar!" she'ri 1919 -yilda yozilgan. Ushbu she'ning to'la bo'lmagan nusxasi (18-20 va 23-25 satrlari) shoir arxivida 79-inventar raqami bilan saqlanadi. Parcha 23*35,8 sm formatli qog'ozga arab grafikasida ko'k qalam bilan yozilgan. Hamzaning o'zi kuy bastalagan

¹² Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 506-bet.

mazkur she'r, O'lka sayyor dramtruppasi tomonidan 1919-1920- yillarda ko'p marta ijro etilgan.

Dastlab "Tanlangan asarlar" (1949) da, so'ng barcha she'riy to'plamlarida e'lon qilingan. Nashrda "Tanlangan asarlar" matni asosida e'lon qilingan. She'r TAT 2-jildining 170-betida berilgan.¹³

Yashangiz ishchi, dehqonlar!

(Ashula)

Yashangiz ishchi, dehqonlar, jahon ichra !

Bo'lmasin zolimlar bizning zamon ichra !

Buzamiz eski turmushni, xurofotni, bid`atni.

Tuzamiz yangi turmushni zamon ichra,

Abadiy so`ngra yasharmiz jahon ichra.

Bizniki dunyo, ishchilar, o`qib olsak,

Kechirgan kunlarni o`ylab, kula olsak,

Suramiz butkul zulmatni, jaholatni, g`aflatni.

Tuzamiz yangi turmushni zamon ichra,

Abadiy so`ngra yasharmiz jahon ichra.

"Qalpoq kiygan qahramonlar" she'ri 1919- yilda yozilgan, dastxati Hamza arxivida 79-inventar raqami bilan saqlanmoqda. She'r 23*35,8 sm formatli qog'ozga arab grafikasida qalam bilan yozilgan. Qo'lyozmaning 1-2-satrlari "Berma erkingni qo'ldan" she'rining dastlabki satrlari bilan mushtarakdir. She'r birinchi marta "Mukammal asarlar to'plami"ning 3-

¹³ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 506-bet.

jildida e'lon qilingan. Ushbu nashrga qo'lyozma asosida kiritilgan. She'r TAT 2-jildining 172-betida berilgan.¹⁴

“Yasha, Sho‘ro, Yasha, Irfon!” she'ri “Yasha, Sho‘ro!” she'ri bilan hamohang tarzda yozilgan (ashula) dastxati Hamza arxivida 55-inventar raqami bilan saqlanadi. 20*22 smli formatga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan. Dastxatda “Ashula havosi tatarcha”, “1920- yil 16- yanvar” degan yozuvlar bor. She'r “Tanlangan asarlar” (1949, 1951) da va “Mukammal asarlar to'plami”ning 3-jildida bosilgan. Ushbu nashrga qo'lyozma asosida kiritilgan. She'r TAT 2-jildining 174-betida berilgan.¹⁵

Hamza Hakimzoda Niyoziyning yuqorida keltirilgan she'rlari haqidagi ma'lumotlar, quyidagicha xulosa qilishga asos bo'ladi. Shoirning, erk, ozodlik, hurriyat mavzularida yozilgan she'rlari ashula qilib aytilgan. Chuhki o'sha davrda mehnatkash xalq savodsiz bo'lgan. Savodsiz xalq she'rni o'qiyolmasligi va ko'zi ojizlar ko'ra olmasligi hisobga olingan. Ashulani o'qishni bilmagan, yoki ko'zi ko'ra olmagan kishilar ham eshitib tushunib olishi nazarda tutilgan.

Jumladan, Hamza, adib Sobir Abdullaga shunday degan ekan: “Gazeta va jurnallarda she'rlaringni o'qib juda xursandman! Biroq afsuslanadigan yerim shuki, xalqimizning ko'pchilik qismi hali savodsiz chala savod. Savodi borlari ham she'rlarimizni gazetalardan o'qib zavqlanish saviyasiga ega emaslar. Agar she'rlarim hammaga barobar yetib borsin, hamma o'qisin desang, qo'shiq yoz, uka! Qo'shiqni savodsiz ham, chala savod ham hatto ko'zi ojizlar ham eshitadi. Yangi qo'shiqni huzur qilib tinglab, uni yozgan shoirga rahmat aytadi. Bu bilan seni gazetadan

¹⁴ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 507-bet.

¹⁵ Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 507-bet.

uzoqlashtirmoqchi emasman. Gazeta-jurnallarda ham faol qatnasha beru, ashula yozishni birinchi vazifalar qatoriga qo‘y. Xalqqa tez tanilasan. Gazeta-jurnal yo‘q qorong‘u zamonda Muqimiyni xalqqa tanitgan shu ashula-da” (“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1970 yil, № 3).¹⁶

Demak, shoir, xalqni, millatni, erkin, ozod, hur yashashini juda hohladi va bu yo‘lda hormay-tolmay ijod qildi. Xalqning farovonligi yo‘lida hayotini xavf ostida qoldirdi. Uning fojiona o‘ldirilishiga sabab, otashin vatanparvarligi, millatparvarligi, ma‘rifatparvarligi va hurriyatparvaligi bo‘ldi. U o‘zbek millatining faxri bo‘lib, tarixda qoldi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning adabiy-ijodiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti tarixida balki dunyo xalqlari tarixida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada shoirning bir nechta she‘rlariga to‘xtalishning imkoni bo‘ldi xolos. Mazkur mavzuga aloqador dramatik asarlari haqidagi maqolalar, alohida bir kitob yozish uchun yetarli ma‘lumotni beradi.

Adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlagan-adib.html>
3. Малоҳат Абдурахмонова, Устоз изидан, Шарқ юлдузи, 1979 йил 3-сон, 123-124- бетлар.

¹⁶ Малоҳат Абдурахмонова, Устоз изидан, Шарқ юлдузи, 1979 йил 3-сон, 123-124- бетлар